

## MILLIY UYG‘ONISH DAVRI O‘ZBEK ADABIYOTINING MANBALARI VA ULARNING YUZAGA KELISHIDA IS‘HOQXON IBRATNING TUTGAN O‘RNI

*Abdumo‘minova Ziyoda Sherzod qizi*  
*Sharq filologiyasi va tarjimashunoslik fakulteti*  
*1-kurs malay-ingliz guruhi talabasi*  
*Ilmiy rahbar: M.B.Mamatkulova*  
*[zkim777@gmail.com](mailto:zkim777@gmail.com)*  
*+99893 233 21 05*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ikki buyuk asr XIX va XX asrlar oralig‘idagi 50-60 yillik davr qadim va boy o‘zbek adabiyoti tarixida g‘oyat muhim ahamiyat kasb etganligi, “Adabiyot millat oynasi” (Avloniy) sifatida xalqimiz hayotida yuz bergan eng katta baxtsizlik o‘z mustaqilligini yo‘qotishi natijasida ko‘plab “millat yuragi”ning so‘nish sabablari, adabiyot davr voqealari ta’sirida g‘arblashishi, mazmun-mundariyasi kengayishi, davriy matbuot va teatrning paydo bolishi, an’anaviy she’riyat va u bilan bog‘liq timsollarga yangi mazmun kirib kelishi, bir so‘z bilan aytilganda zamonoviy realistik adabiyot maydonga kelganligi va bunda ko‘plab tarixchi olim, tilshunos, pedagoglar, jumladan, Is‘hoqxon to‘ra Ibratning faoliyati va hissasi ko‘rsatib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** Renessans, Is‘hoqxon to‘ra Ibrat, Milliy tiklanish, Muhammad Solih, “Tarixi jadidai Toshkand”, “lugati sitta alsina”, “al-tijor al-namangan”

“Renessans” tushunchasi asli fransuzcha bo‘lib tiklanish degan ma’noni bildiradi. Renessans – g‘arbda insoniyat davrining mumtoz davri hisoblanib, yunon va rim madaniyatiga- antik madaniyat sifatida aytilgan va butun bir davrni o‘z ichiga oladi. Tiklanishning bosh xususiyati, shahar madaniyatining gullab-yashnashi, insonni ulug‘lovchi falsafiy ta’limot – gumanizmning ijtimoiy-ma’naviy hayotning barcha qismlariga kirib borishi sanaladi. Bu jarayon Turkistonga yuz yildan ortiqroq vaqtda yetib keldi. Keng ma’noda ijtimoiy-manaviy hayotning barcha jabhalarini yangilashni ko‘zda tutadigan bu atama o‘zimizda “Jadidchilik” deb ataladi. Bu o‘ziga xos davr ya’ni milliy uyg‘onish davri XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlarini qamrab oladi. Ushbu davrda bo‘lgan ko‘plab bosqinlarni o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan tarixchi olimlar o‘z kitoblarida aks ettirganlar. Jumladan, tarixchi Muhammad Solih “Tarixi jadidai Toshkand” asarida shunday yozadi: “Butun osmonni tutun va chang qoplab oldi, nihoyat, ruslar yaqindagi tepalik tomon chekinib mudofaaga o‘tishga majbur bo‘ldilar. Qamalda yotgan shaharliklar buni ko‘rib juda quvondilar. Lekin rus qo‘shinlari o‘zlarini o‘nglab qayta hujumga o‘tib Toshkent qo‘shinlarini orqaga chekintirdi.”

Bu davrda ijod qilish albatta mushkul bo'lgan. Garchi boshida ahdnoma o'z dinida qolishi, barcha ishlar shariat asosida olib borilishi, shaxsiy mulklarning daxlsizligini bildirgan bo'lsa ham. Shunday bo'lishiga qaramay, bu davrda o'z ijodini bir zumga to'xtatmay o'z milatining uyg'onishini hammadan ko'p xohlagan jonkuyar jadidlar talaygina bo'lishgan, xususan, Is'hoqxon to'ra Ibrat.

#### Ishoqxon ibrat

Is'hoqxon tora Ibrat milliy uyg'onish davrining faol ijodkorlaridan biri serqirra istedod sohibi. U 1862 yil Namangan viloyati To'raqo'rgon tumanida tug'ildi. Uning ota-onalari o'z davrining o'qimishli kishilari edi. Is'hoqxon avvaliga, xijo usuliga asoslangan mahalla maktabida o'qiydi va keyinchalik onasi Xuribibi qo'lida savodini chiqardi. O'qimishli onasi kabi o'gli Ibrat ham adabiyot va san'atga zo'r muhabbat qo'ygan edi. O'qishini davom ettirishi uchun ota-onasi uni Qo'qonga yuboradilar va u 1878-yili Muhammad Siddiq Turnaqator madrasasiga o'qishga kirdi. U o'zbek adabiyotida, madaniy hayotida, maorifida katta o'zgarishlar sodir bo'layotgan vaqtda o'qidi. Muqimiy, Furqat, Muhyi, Zavqiy, Nodim, Xaziniylar bilan yaqin aloqda bo'lishni, ular bilan bir davrada, adabiy mushoiralarida ishtirok etishni juda yaxshi ko'rar edi. U til o'rganishga ham qo'l bo'ladi va o'qishi davomida buyuk sharq olimlari asarlarini mustqail o'qib arab, fors va rus tillarini chuqur o'rgandi. Har tamonlama o'qimishli bo'lishni istagan Ibrat madrasani tugatib To'raqo'rg'onga qaytadi va o'zi kabi o'zgalarni ham bilimli qilishga shoshardi. U usuli qadim – "Usuli taxajji" ya'ni xijo metodiga asoslangan maktablardan farqli maktab ochdi. Rus maktablaridagi usullarni xijo va quruq yodlash usullaridan ustun ekanigini payqagan Is'hoqxon to'ra o'z maktabida boshqacha usul ya'ni (tovush) savtiya usulini qo'lladi. Afsuski, bu quvonish ko'pga cho'zilmadi.

Ibrat o'zining "lug'ati sitta alsina" kabi asarlarida yozishicha: "1887-yil onasini Makkaga olib borishining asosiy maqsadi, onasini hajga olib borish niyatini qondirish, ikkinchidan, esa, chet el xalqlari hayoti, madaniyati bilan tanishishdir",- deydi. Onasi Xuribibi o'z vataniga yetib kelishga ulgurmay Jidda shahrida vafot etadi. U onasini dafn etib sharq mamlakatlari bo'ylab sayohatini davom ettiradi. Istanbul, Sofiya, Rim kabi Yevropa shaharlarida bo'ladi. Undan keyin Afg'onistonning Kobul shahrida, Jiddada istiqomat qiladi. Shu bilan birga, Hindistonning Bombey va Kalkutta shaharlarida yashaydi. U Hindistonda arab, fors, hind-urdu va ingliz tillarini mukammal o'rganadi. Birma, Xitoy va Qoshg'ardan o'tib Namanganga keladi va olti tilni o'z ichiga olgan "lug'ati sitta alsina" nomli asarini yozdi. Ancha vaqt o'tib yana maktab ochishga muvaffaq bo'ldi. Usuli savtiya usuliga asoslangan maktab avvaliga 30 nafar qishloq bolalarini o'qitdi. U o'qish-o'qitish usullarini o'zi tuzib chiqdi va yangicha o'qitish usullaridan xabardor bo'lgan pedagog Xusayn Makaevni taklif qildi. U va uning ayoli Fotima Makaev bu maktabda faoliyat ko'rsatishdi.

Maorif va madaniyatning ravnaq topishi , xalq ongining shakllanishini, rivojlanishini jon jahdi bilan xohlagan Ibrat 1913-yil “matbaai isxoqiya” qoshida “al-tijor al-namangan” nomida gazeta chiqarishga harakat qiladi, lekin, afsuski, nashr qilishga muvaffaq bo‘la olmaydi. Bunga qaramay, u “Kutubxona Is’hoqiya” deb atalgan kutubxona ochdi. U shu darajada xalqning ongini shakllantirishni xohlaganki, xatto kutubxonasida o‘zbek, turk, tatar, rus, fors-tojik tillarida yozilgan ko‘plab kitoblar topilgan. U maktabidagi o‘quvchilarni Mahmudxoja Behbudiyning “Asbobi ta’limi savod”, “Kitobatul-atfol” kabi 50 nomdan ortiq darslik bilan ta’minlaydi.

1897-1924-yillarda uzluksiz To‘rao‘rg‘on qozisi bo‘ldi va ko‘p mahalliy va mustamlaka amaldorlarining qabih ishlarini fosh etdi. U juda adolatli qozi bo‘lgan.

Milliy uyg‘onish davri mutafakkirlari o‘zbek xalqlini taraqqiy etgan millatlar safida ko‘rishni istardi va buni birgina chorasini maktab-madrasalarni tubdan isloh etish edi. Munavvarqori Behbudiy “Oyna” jurnali, Is’hoqxon to‘ra Toshkent jadidlari rahbarlik qilgan “Sadoyi Turkiston” gazetalarida o‘z asarlari bilan ishtirok ettilar.

Qiziqqon Ibrat 1910-yili To‘rao‘rg‘on aholisi uchun otasidan qolgan yerni gulbog‘ qilib qildi, 150 tup manzarali daraxtlardan xiyobon yaratdi , Yevropa usulida katta imorat qurdirib uning arkiga “Xush kelibsiz Is’hoqiya bog‘iga” deb yozib qo‘ydi. Istirohat bog‘i ham yaratdi.

1937-yilda bahorda qamoqqa olindi va 2 oy o‘tib hayot bilan vidolashdi. Undan ko‘pgina asarlar meros bo‘lib qoldi . Jumladan, “lug‘ati sitta alsina”, “Tarixi farg‘ona”, “Tarixi madaniyat”, “Mezonuz-zamon”, “Jomeul xutut” kabi. Xalqining jonkuyar farzandi Is’hoqxon to‘ra Ibrat kelajakda ilm-fan , madaniyat rivojlangan shaharlar sirasida o‘z xalqlini , millatini ko‘rishni juda xohladi va buning uchun jonidan kechib harakat qildi. Ibrat asarlari orqali xolis va asosli nuqtai nazarlari, siyosatdonligi va donishmandligi bilan o‘sha davr ijtimoiy-madaniy taraqqiyotiga o‘z tasirini o‘tkaza oldi. Uning ilmiy-tarixiy asarlari vatanimiz tarixini o‘rganishda, shubhasiz, zarur manbadir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. – Begali Qosimov, Sharif Yusupov, Ulug‘bek Dolimov, Shuhrat Rizayev, Sunnat Axmedov., Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti – Toshkent: Ma’naviyat, 2004
2. Khalid A., International Journal of Middle East Studies – Printing, Publishing and Perform in Tsarist Central Asia, 1994
3. Olim Usmon, O‘zbekistonda rus tilining ilk targibotchilari – Tashkent, 1962